To‘xtasinov Mira’zam Abdujabbor o‘g‘li
Namangan davlat universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix yo‘nalishi talabasi
E-mail: mirazamtohktasinov@gmail.com

SOMONIYLAR DAVLATINING MARKAZLASHUV JARAYONLARI

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.12600667

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘rta Osiyoda IX - X asrlarda hukm surgan Somoniylar sulolasining kelib chiqishi va ularning huquqiy maqomi hamda Somoniylar davlatining markazlashuv jarayonlari haqida ma'lumotlar berildi .

Kalit so‘zlar: Ismoil ibn Ahmad, Nasr, Tohiriylar, G‘aznaviylar, Buxoro, Kampirak devori, Bag‘dod, Talos vodiysi

Somoniylar davlatini markazlashgan davlatga aylantirishi Ahmad ibn Somonning beshinchi o‘g‘li Ismoil ibn Ahmad nomi bilan bog‘liqdir. U Somoniylar davlatini markazlashtirish bilan birgalikda, qolgan hukmdorlar qila olma-gan ishni amalga oshiradi. Ismoil Somoniy so‘ngi marta hech bir sulola vakillari goh Tohiriylar bo‘lsin, goh G‘aznaviylar davlati bo‘lsin ularning birortasi ham Movarounnahr, Xuroson va Xorazm hududlarini bir hokimyat ostida birlashtira olmaydi. Ismoil Somoniy esa ana shunday tarixiy voqeani amalga oshirib tarixda o‘zining o‘chmas nomini qoldiradi.

873-yilda Buxoro shahri va uning atroflarini Tohiriylarning so‘nggi vakili Muhammad ibn Tohir egallab olib, ushbu hududlarga soliqlar soldi. Bundan g‘azablangan xalq ommasi Muhammadga qarshi qo‘zg‘olon ko‘taradi. 874-yilda Muhammad ibn Tohir Xorazm shaharlarini talayotgan bir paytda Buxoro zodagonlari Nasr ibn Ahmaddan Buxoroga oila a’zolaridan birini noib etib yuborishini iltimos qiladilar. Nasr Buxoroga tadbirli va zehnli inisi Ismoil ibn Ahmadni hokim etib jo‘natadi. Bu holatda kutilganidek, Nasr Ismoilga o‘z noibi sifatida murojaat qilgan. Shu tariqa Ismoil ibn Ahmadning Buxorodagi faoliyati o‘z akasiga noiblik qilishdan boshlandi. Bu orada Buxoro Somoniylar sulolasi hukmi ostiga o‘tishi bilan Nasr xalifa Mu’tamiddan 875-yilda butun Movarounnahrni boshqarish uchun yorliq olishga muvaffaq bo‘ldi. Ismoil esa Buxoroda o‘z hokimiyatini mustahkamlab olgach, Samarqandga yuborishi kerak bo‘lgan soliqni yubormay qo‘yadi. Bu esa uning o‘z akasiga bundan buyon tobe bo‘lishni istamasligidan dalolat berar edi. Bu holat aka-ukalar o‘rtasiga nizo urug‘ini sepadi. Buning natijasi o‘laroq Nasr va Ismoil o‘rtasida ikki marotaba yirik to‘qnashuv sodir bo‘ladi.

Bu to‘qnashuvlarning birinchisi 886-yilda yuz berdi va unda mag‘lubiyatni qabul qilib olgan Ismoil vaqtinchalik Buxoro noibligidan chetlashtiriladi. Lekin Ismoil tezroq hokimiyatni qaytarib olish haqida o‘ylay boshladi, bu esa 888-yilda ikkinchi marotaba to‘qnashuv bo‘lishiga olib keladi. Bu safar avvalgi mag‘lubiyatdan to‘g‘ri xulosalar chiqargan Ismoil o‘z akasiga hech qanday imkoniyat qoldirmaydi va Nasrni tor -mor etadi.

Lekin Ismoil akasini sulola boshlig‘i sifatidagi mavqeini saqlab qoladi. Chunki Ismoil ham o‘z dinining sodiq ummatlaridan bo‘lib, oila va uning a’zolari naqadar muqaddas ekanligini yaxshi anglagan edi. Shu tariqa hokimiyat Ismoil qo‘lida bo‘lsada, Nasr uning rasmiy egasi bo‘lib qolaverdi. Bu holat Nasr ibn Ahmadning o‘limiga qadar davom etdi. 892-yilga kelib, Nasr vafot etgach, Ismoil butun Movarounnahrning to‘laqonli egasiga aylandi. Shundan so‘ng Ismoil Somoniyning Movarounnahr bilan bog‘liq islohotlari to‘laqonli harakatga keldi. Jumladan, poytaxt tez orada Samarqanddan Buxoroga ko‘chirildi. Bu orada Ismoil ko‘chmanchilarning bir necha yillik xavf-

xatarlaridan qutilish haqida o‘ylay boshladi va 893-yilda ko‘chmanchilarga qarshi qo‘shin tortib, avval Taroz shahridan Talos vodiysigacha bo‘lgan hududlarni, keyinchalik Ustrushonani egallab oladi. U yerdan qimmatbaho oltin konlari bo‘lib ularning barchasi Somoniylar tassarufiga o‘tadi. Ismoil Somoniy uning hukmdori Sayr ibn Abdullohni taslim etdi. Bu Somoniylar davrida ko‘chmanchilarga qarshi qilingan oxirgi katta yurish bo‘ldi.

Natijada dashtlik qabilalarining Movarounnahr viloyatlariga bo‘lgan uzluksiz yurishlari barham topib, o‘troq aholi endi vohalar atrofi bo‘ylab yuzlab kilometrga cho‘zilgan mudofaa devorlari, qal’alar qurish va ularni muttasil ta’mirlab turishdek og‘ir va mashaqqatli ishdan xalos bo‘ldi. Xuddi shu davrdan boshlab 300 kilometrdan oshiqroq masofada Buxoro vohasining atrofini o‘rab turgan qadimiy mudofaa inshooti Kampirak devorining har yilgi odatiy hashari to‘xtatilib, endi bu devorga ehtiyoj qolmaydi. Shu davrdan boshlab Ismoil Somoniy “Toki men tirik ekanman Buxoro shahrining mudofaa devori men bo‘laman” deydi va u o‘z zimmasiga olgan bu majburiyatni bajaradi. U doim barcha janglarda o‘zi qatnashadi va Buxoro shahri ustidan dushmanlarni zafar toptirishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Movarounnahr aholisining mustaqillikka erishib, Somoniylar davlati va Ismoil Somoniyning kuchayib borishi sharqiy viloyatlardan undirib kelinadigan boyliklardan mahrum bo‘lgan Arab xalifaligini, bir tomondan, nihoyatda ranjitsa, ikkinchi tomondan cho‘chitar ham edi. Natijada xalifalik Ismoilni ortib borayotgan qudratini sindirish uchun Safforiylar bilan to‘qnashuvini tashkillashga va bu orqali har ikkala davlatni ham zaiflashtirib, bu viloyatlarda avvalgi ta’sir doirasini tiklashga urina boshladi. Bag‘doddagi xalifalik hokimiyati Yoqubning muvaffaqiyatlaridan anchagina xavotirga tushib, unga qarshi bir qator choralar ko‘rgan bo‘lsa-da, bu harakatlar natijasiz tugadi. 874-yilda xalifa bo‘lib o‘tgan voqealarni tan olib, Yoqubni Xuroson va Movarounnahrga noib etib tayinlashga majbur bo‘ladi. Garchi Yoqubga Movarounnahr yerlari ham topshirilgan bo‘lsa-da, amalda uning hukmronligi Amudaryodan shimolga o‘tmadi. Yoqub ibn Laysning diniy ayirmachilik g‘oyalari ko‘p holda xalifaga ma’qul kelmas edi. Qolaversa, Yoqub o‘z yerlarini xalifalik hududi hisobiga ham kengaytirmoqchi bo‘ladi. Bu esa o‘zaro ixtilofhi kuchaytirib yuboradi. 876-yilda Yoqub ibn Lays xalifa hokimiyatini egallash maqsadida Bag‘dodga qo‘shin tortadi.

Bag‘doddan 100 km uzoqlikdagi Dar al-Akul degan joyda Yoqub va xalifa qo‘shinlari to‘qnashib, Yoqub mag‘lubiyatga uchraydi. Ushbu muvaffaqiyatsiz yurishdan so‘ng uch yil o‘tgach, Yoqub ibn Lays vafot etadi va uning o‘rnini ukasi Amr ibn Lays (879-900) egallaydi. Amr ibn Lays xalifaga o‘z vassalligini bildirganidan so‘ng, Movarounnahr va Xurosonni boshqarish huquqini beruvchi yorliq oladi. Ammo Tohiriylarda bo‘lgani kabi Safforiylar ham amalda xalifalikdan mustaqil siyosat olib borishgan. Safforiylar asosan mayda va o‘rtahol yer egalariga suyangan holda davlatni idora qilishdi. Ular xalqdan olinadigan soliq miqdorini ancha kuchaytirib yuborishdi. Shuning uchun ham keng xalq ommasi ularni qo‘llab-quvvatlamadi. Safforiylar diniy-ma’naviy hayotda aksariyat ayirmachilik yo‘lini olib borishdi. Safforiylarning diniy ayirmachilik siyosati aholi orasida haqli norozilikka sabab bo‘lgan. IX asring ikkinchi yarmidan boshlab esa Somoniylar sulolasi tarix sahnasida paydo bo‘ldi.

Bu yo‘lda Bag‘dod xalifasi al-Mu’tazid 898-yilda Ismoilni Movarounnahr noibligidan tushirib, o‘rniga safforiy Amr ibn Laysni hokim etib tayinlash haqida yorliq chiqaradi. Movarounnahr noibligi haqida yorliqni qo‘lga kiritgan Amr ibn Lays Ismoilga qarshi qo‘shin tortdi. Ismoil va Amr ibn Laysning bosh sarkardasi Muhammmad ibn Bashar o‘rtasidagi ilk jang 899-yilda sodir bo‘ldi va unda Ismoil Somoniy g‘alaba qozondi. Ismoil ma’rifatli shaxs ekanligini shu

voqeada ham isbotini ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni Ismoil jangdan so‘ng hammani hayron qoldirgan holda asirlikka tushgan hammaga o‘z vatanlariga qaytib ketish imkonini beradi. Ismoilning bunday oliyhimmatligi safforiy harbiylarini lol qoldirdi va ularning e’tirofiga sazovor bo‘ldi. 900-yilning bahorida Balx shahri yaqinida bo‘lgan hal qiluvchi jangda yana Ismoil g‘alaba qozonadi. Amr ibn Lays asir olinib, Bag‘dod xalifasi huzuriga yuboriladi. Ma’lumotlarga ko‘ra bu jangda Ismoil Somoniyga Xorazm va Farg‘onadan kelgan harbiy qo‘shinlar ham ko‘maklashgan. Tarixchi Narshaxiyning ma’lumotlariga ko‘ra, Ismoil bu jangda Buxoro hunarmandlari va oddiy xalqning qo‘liga qurol berib, ularni o‘z ozodligini saqlab qolishga chaqirgan. Xalq madadi bilan ilk bor Ismoil arab bosqinidan keyin ayanchli ahvolga kelib qolgan o‘lkani qudratli va mustaqil davlatga aylantirish yo‘lini tutdi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tish joizki, Somoniylar davlatining markazlashuvi bevosita xalifalikning zaiflashuvi davriga to‘g‘ri keladi. Bu siyosiy inqirozdan unumli foydalangan sulola asoschilari o‘zlarining yirik va markazlashgan davlatlarini tuzadilar. Bu sulola davrida musulmon olamidagi dastlabki va yirik markazlashgan davlat vujudga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Наршахий А. Бухоро Тарихи. – Т:. Фан. 1996. Б. 120.
2. Неьматов Н. Давлати Сомониён. – Ирфон. 1999. Б. 328.
3. Shamsutdinov R. va Karimov Sh. Vatan Tarixi. –T.: Sharq. 2010. B. 511
4. Эшов Б.ва Одилов А. Узбекистон Тарихи. – Тошкент. 2014. Б. 489.
5. Камолиддин Ш. Исмоил ибн Ахмад ас-Сомоний. Scholars press. 2017. Б. 93.
6. Sagdullayev A. O‘zbekiston tarixi. – T.:Donishmand ziyosi. 2021.B. 624.
7. Bobojonova F. Buxoro me’moriy obidalari tarixi. Buxoro:. Fan va ta’lim. 2022. B. 285.
8. Boydedayev D. /Buxoro faxri – Ismoil Somoniy. Yangi O‘zbekistonning umidli yoshlari. 14-son. 28.05.2022-y.
9. Yo‘ldasheva B. /Somoniylar va Qoraxoniylar davrida Buxoro shahri madaniyatining rivojlanishi va atrof-muhitga munosabat. 3. 2022-yil.
10. https://shosh.uz/uz/mutafakkirlar-abu-abdulloh-xorazmiy/
11. https://buxoroisharif.uz/5115/?amp=1